



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No7



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 105 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyulda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'zbekistonda aholi ish bilan bandligini oshirishda davlatning roli	20
Juraqulov Baxrimurod Ilxomovich	
BIM texnologiyasi: zamonaviy qurilish sohasida samaradorlik va shaffoflik omili	26
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyati samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish	31
Yuldashov Isomiddin Sidiqov	
Korxona iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda diversifikatsiya strategiyasining roli	35
Alimatova Shoxsanam Abdumalik qizi	
Модели совместного развития человеческого капитала и искусственного интеллекта в цифровую эпоху	40
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Navigating sustainable development: management challenges and solutions in the oil and gas sector	49
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi	
Banklarda moliyaviy barqarorlikning nazariy asoslari	56
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Mechanisms for stimulating investment activity at energy industry enterprises	60
Matchanov Umirzak Seytjanovich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm industriyasidan foydalanishda xorijiy mamlakatlar tajribalari	66
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
O'zbekistonda barqaror davlat qarzi siyosatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari	71
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане	76
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
Economic analysis and development strategy of the composites market in the regions of Uzbekistan	81
S.S.Sidiqov, A.A.G'ulomov, B.R.Tillayeva	
Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikning kutilayotgan istiqbollari va hozirgi natijalari	88
Muxamedov Ravshan Zafarovich	
Elektron tijoratni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yo'llari	93
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
Investitsion jozibadorlik konsepsiyasi va uning strategik ahamiyati	99
Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	



INVESTITSION JOZIBADORLIK KONSEPSIYASI VA UNING STRATEGIK AHAMIYATI

Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li

TDIU mustaqil izlanuvchisi, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada investitsion jozibadorlik konsepsiyasi va uning strategik ahamiyati tahlil qilinadi. Muallif investitsion jozibadorlik va investitsion muhit tushunchalarining o'ziga xos farqlarini ochib beradi hamda I.A. Blank modeli asosida baholash mezonlarini ko'rsatadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish borasidagi zamonaviy tendensiyalar va "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida ko'zda tutilgan investitsiya chora-tadbirlari tahlil etiladi. Maqolada investitsion xavfsizlik, huquqiy kafolatlar va hududiy rivojlanish omillari alohida yoritilgan.

Kalit so'zlar: investitsion jozibadorlik, investitsion muhit, xorijiy investitsiyalar, strategik rivojlanish, iqtisodiy o'sish, O'zbekiston – 2030, I.A. Blank modeli.

Abstract: This article analyzes the concept of investment attractiveness and its strategic importance. The author distinguishes between investment attractiveness and the investment climate, presenting an evaluation framework based on the I.A. Blank model. The paper examines current trends in attracting foreign direct investment (FDI) to Uzbekistan and evaluates the policy measures set out in the "Uzbekistan – 2030" strategy. The study also highlights issues related to investment security, legal guarantees, and regional development.

Key words: investment attractiveness, investment climate, foreign direct investment, strategic development, economic growth, Uzbekistan – 2030, I.A. Blank model.

Аннотация: В данной статье рассматривается концепция инвестиционной привлекательности и её стратегическое значение. Автор раскрывает различия между понятиями инвестиционной привлекательности и инвестиционной среды, а также представляет модель оценки по И.А. Бланку. Особое внимание уделяется современным тенденциям привлечения прямых иностранных инвестиций в Республику Узбекистан и мерам, предусмотренным в рамках стратегии «Узбекистан – 2030». Освещаются аспекты инвестиционной безопасности, правовых гарантий и регионального развития.

Ключевые слова: инвестиционная привлекательность, инвестиционная среда, прямые иностранные инвестиции, стратегическое развитие, экономический рост, Узбекистан – 2030, модель И.А. Бланка.

KIRISH

Bugungi dunyo katta sinovlarni boshidan kechirmoqda. Global xavfsizlik va barqaror rivojlanishga jiddiy tahdidlar tobora kuchaymoqda, geosiyosiy jarayonlar ko'z o'ngimizda shiddat bilan o'zgarmoqda.

Jahonda qurollanish poygasi yana avj olmoqda. Yirik mamlakatlarning harbiy xarajatlari 2010-yilga nisbatan bir yarim barobar ortib, 2,5 trillion dollarga yetdi. Iqtisodiy inqiroz asoratlari, moliyaviy resurslar taqchilligi tufayli jahon yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'atlari esa ketma-ket uch yil davomida pasaymoqda.

Ming afsuski, xalqaro huquq normalari va diplomatiya kuchi zaiflashmoqda. Eng achinarlisi, insoniyat uchun eng dolzarb muammolar – oziq-ovqat xavfsizligi, kambag'allik, iqlim o'zgarishlari kabi masalalarga e'tibor kamaymoqda. Dunyoda tinchlik, adolat va inson qadriga bo'lgan umumiy ishonchni tiklash har qachongidan ham muhim.

Biz Ukraina bilan bog'liq vaziyatni faqat diplomatik yo'llar bilan hal etish zarur, deb hisoblaymiz va Istanbulda bo'lib o'tayotgan to'g'ridan to'g'ri muzokaralarni olqishlaymiz.

Shu bilan birga, ko'pdan buyon cho'zilayotgan G'azo fojiasiga e'tiboringizni qaratmoqchiman. XXI-asrda ko'z o'ngimizda ko'plab begunoh insonlarning nobud bo'layotganini hech nima bilan oqlab bo'lmaydi. Bu muammoning yagona yechimi – nizoni xalqaro huquq me'yorlari va qabul qilingan rezolyutsiyalar asosida adolatli hal qilishdir. Falastin xalqi o'z mustaqil davlatiga ega bo'lishga haqlidir.

Global kun tartibidagi yana bir masala – bu qo'shni Afg'onistonning tinch va barqaror rivojlanishiga ko'maklashishdan iborat. Bu davlatning amaldagi hukumati bilan xalqaro maydonda konstruktiv muloqot olib borish, uning yakkalanib qolishiga yo'l qo'ymaslik har qachongidan ham muhim. Zero, mazkur mamlakatdagi



osoyishtalik va iqtisodiy rivojlanish yon-atrofdagi barcha mintaqalarning uzoq muddatli taraqqiyoti uchun zarur omildir.¹

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsion jozibadorlik va investitsion muhit tushunchalarining iqtisodiy mazmuniga doir mavjud nazariy yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu ikki kategoriya o'zaro uzviy bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi xususiyatga ega. Biroq ularni to'liq sinonim sifatida qabul qilish noto'g'ri bo'ladi, chunki ularning mazmuni, iqtisodiy mohiyati va baholash mezonlari bir-biridan farqlanadi. Investitsion jozibadorlik, asosan, alohida xo'jalik yurituvchi subyekt yoki hududning sarmoyadorlar uchun qanchalik qiziqarli va foydali ekanligini ko'rsatuvchi tavsifdir, investitsion muhit esa — mamlakat yoki hududda investitsiya faoliyatining shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi tashqi-iqtisodiy, institutsional va huquqiy omillar majmuasini ifodalaydi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'plab tadqiqotchilar investitsion jozibadorlik va investitsion muhitni baholash bilan bog'liq masalalarga e'tibor qaratgan bo'lsalar-da, ushbu tushunchalarning iqtisodiy mazmuniga yondashuvlarda birlik mavjud emas. Turli mualliflar ularni o'z ilmiy maktablari va metodologik yondashuvlariga asoslangan holda talqin qilganlari bois, mazkur tushunchalarning mohiyati bir-biridan sezilarli darajada farqlanishi mumkin.²

S. Kuznetsova va M. Vakulich (2017) investitsion muhitni uzoq muddatli dinamikada tahlil etilishi lozim bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlarning yig'indisi sifatida izohlaydilar. Ularning fikricha, investitsion muhitning holatini baholashda statistik ko'rsatkichlar bilan bir qatorda, ushbu ko'rsatkichlarning shakllanishiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar majmuasi ham hisobga olinishi zarur.

P. Korenyuk va E. Kopyl (2018) investitsion jozibadorlikni sarmoyador va investitsiya obyektining egasi o'rtasida o'zaro manfaatli kelishuvga erishish qobiliyati sifatida talqin qiladilar. Ularning fikricha, investitsiya obyektining jozibadorlik darajasi, avvalo, investitsiya jarayonida ishtirok etuvchi tomonlar o'rtasida qanday tezlikda muvozanatli qarorga kelinishi bilan belgilanadi.

I.A. Blank fikricha, iqtisodiyot tarmoqlarining investitsion jozibadorligini baholashda uchta asosiy element mavjud. Bular: iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanish istiqboli, korxonalarning o'rtacha rentabellik darajasi va hududiy investitsiya tavakkalchiliklarini baholashdir.³

Muallifning ta'kidlashicha, mamlakat hududlarining investitsion jozibadorligini aniqlashda esa yana bir qator asosiy omillar e'tiborga olinadi. Ular qatoriga quyidagilar kiradi: hududning umumiy iqtisodiy rivojlanish darajasi, investitsiya infratuzilmasining holati, bozor munosabatlari va tijorat infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi, hududda investitsiya faoliyatini amalga oshirishning xavfsizlik holati hamda demografik tavsifi.

1-jadval. I.A. Blank Modeli asosida investitsion jozibadorlikni baholash

Baholash elementi	Tahliliy izoh
Iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishining istiqboli	Tarmoqlarning innovatsion salohiyati, eksport imkoniyatlari va texnologik yangilanish darajasi orqali aniqlanadi.
Korxonalarning o'rtacha rentabellik darajasi	Daromad va xarajatlar nisbatini ko'rsatadi, foyda olish barqarorligini baholashda muhim.
Hududiy investitsiya tavakkalchiliklari	Siyosiy, huquqiy va iqtisodiy xatarlar darajasi hisobga olinadi.
Hududning umumiy iqtisodiy rivojlanishi	YalIM hajmi, sanoat va xizmatlar sohasining o'sish sur'atlari asosida baholanadi.
Investitsiya infratuzilmasining mavjudligi	Transport, logistika, energetika va raqamli infratuzilma mavjudligi va sifati hisobga olinadi.
Bozor va tijorat infratuzilmasining darajasi	Hudud ichidagi savdo tarmoqlari, banklar, sug'urta kompaniyalari va biznes xizmatlar tarmog'ining rivojlanganlik darajasi.
Investitsiya faoliyati xavfsizligi	Mulk huquqi, shartnomalarning ijrosi, sud tizimi va jinoyatchilik darajasi baholanadi.
Hududning demografik tavsifi	Aholi soni, mehnat resurslari, iste'mol bozori salohiyati va inson kapitalining sifati tahlil qilinadi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning to'rtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutqi, 10.06.2025. <https://president.uz/oz/lists/view/8203>

2 Bohdan Kyshakevych Prof. DSc, Polonia University, e-mail: b_kyshakevych@ukr.net, orcid.org/0000-0001-5721-8543, Poland Marina Nahayeveva Post-graduate student, Ivan Franko Drohobych State Pedagogical University, e-mail: nachajevamaryna@ukr.net, orcid.org/0000-0002-0587-6410, Ukraine Andrzej Kryński Professor, Ph.D., Polonia University in Czeszochowa, e-mail: a.krynski@ap.edu.pl, orcid.org/0000-0001-9635-023X, Poland, "The economic essence of the investment attractiveness of the regions", Periodyk naukowy akademii polonijnej, 37(2019) nr6.

3 Бланк И. А. Управление инвестициями предприятий. — К.: Ника-Центр, Эльга. 2003. — С. - 102



Ushbu yondashuv asosida xulosa qilish mumkinki, hududiy investitsion jozibadorlik – bu faqat iqtisodiy salohiyatni emas, balki xavfsizlik va barqarorlik omillarini ham qamrab oluvchi kompleks tushunchadir. Shu boisdan, hududlar o'rtasida investitsion raqobatni kuchaytirish, zamonaviy infratuzilmalarni rivojlantirish, huquqiy muhitni takomillashtirish va sarmoyadorlar uchun qulay sharoitlar yaratish orqali mamlakatning umumiy investitsiya faolligini oshirish mumkin bo'ladi.

Akademik S.S. G'ulomov investitsiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Investitsiya deb har bir investorning ixtiyoridagi moliyaviy, moddiy va aqliy boyliklarini birlamchi iqtisodiy samara olish maqsadida muayyan investitsion obyektga yo'naltirishi tushuniladi".⁴

Ushbu ta'rif investitsiyaning mohiyatini nafaqat kapital qo'yilmalari doirasida, balki undan kengroq – ya'ni investor resurslarining har qanday shaklda (moliyaviy aktivlar, moddiy vositalar, intellektual salohiyat) ma'lum iqtisodiy foyda kutib real iqtisodiy faoliyatga jalb etilishi sifatida izohlaydi. Bu yondashuv investitsiyani daromad manbai bo'lishdan tashqari, iqtisodiy o'sish, innovatsion yangilanish va hududiy rivojlanishning strategik omili sifatida qarash imkonini beradi.

A. Sobirov investitsiyalarning mazmun-mohiyatini quyidagicha izohlaydi: "Investitsiyalar – bu daromad olish yoki ijtimoiy samara erishish maqsadida tadbirkorlik yoki faoliyatning boshqa turlariga investorlar tomonidan yo'naltiriladigan mulk va intellektual qadriyatlarning barcha shakllarini ifodalovchi mablag'larning kiritilishidir".⁵

Mazkur ta'rifdan ko'rinib turibdiki, investitsiya nafaqat moliyaviy vositalarni, balki intellektual mulk, texnologik resurslar va boshqa iqtisodiy aktivlarni ham o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, bu ta'rifda investitsiyaning ikki tomonlama – ya'ni iqtisodiy (daromad olish) va ijtimoiy (foydali ta'sir ko'rsatish) samara berish funksiyasi alohida ta'kidlangan. Bu yondashuv zamonaviy investitsiya siyosatini shakllantirishda faqat moliyaviy rentabellik emas, balki barqarorlik, ekologiya, jamiyat farovonligi kabi omillarning ham muhimligini ko'rsatadi.

Investitsion jozibadorlikni baholash – bu investor tomonidan qaror qabul qilish jarayonidagi hal qiluvchi bosqichlardan biri hisoblanadi. Ushbu tushuncha korxonaning amaldagi operatsion faoliyati, uning bozor muhitidagi mavqei hamda sarmoya kiritish bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan risklar darajasini har tomonlama aks ettiradi. Mazkur ko'rsatkich, o'z mohiyatiga ko'ra, iqtisodiy kategoriya sifatida qaraladi va u xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyat natijadorligini tavsiflovchi muhim indikator bo'lib xizmat qiladi.⁶

Investitsiya muhiti — bu murakkab tuzilmaga ega bo'lib, turli sohalar va geografik hududlardagi investitsiya qarorlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan omillar yig'indisidan iboratdir. Normativ-huquqiy bazaning barqarorligi, huquqiy tizimlarning mustahkamligi, infratuzilma sifati, siyosiy muhit va malakali ishchi kuchining mavjudligi kabi omillar investorlarga qulay sharoit yaratishda muhim rol o'ynaydi. Kuchayib borayotgan global raqobat sharoitida mamlakatlarning investitsiya muhitini chuqur anglab yetishi va uni yaxshilashga intilishi barqaror iqtisodiy o'sish va taraqqiyotning muhim omiliga aylanmoqda.⁷

Shu bilan birga, investitsion jozibadorlikning o'lchovi va tahlili bo'yicha yagona xalqaro metodologiya mavjud emas. Bugungi kunga kelib, turli mamlakatlarda investitsion jozibadorlikni baholashda har xil yondashuv va metodikalar qo'llanilmoqda. Ba'zi iqtisodchilar bu tushunchani asosan potensial daromadlilik darajasi bilan bog'laydilar. Biroq bu yondashuv tor doiradagi holatlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin, chunki real investitsiya muhiti murakkab va ko'p omilli bo'lib, barcha sarmoyaviy loyihalarning bir xil xavf darajasida amalga oshirilishini ta'minlash deyarli mumkin emas.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda investitsion jozibadorlik konsepsiyasining nazariy asoslari va ularning amaliy qo'llanishi tizimli yondashuv asosida o'rganildi. Metodologik asos sifatida iqtisodiy tahlil, taqqoslash, induktiv va deduktiv usullar hamda statistik ma'lumotlarga tayangan holda empirik tahlil usullari qo'llanildi. Tadqiqot Nazariy-baholovchi yondashuv, Model asosidagi baholash, Statistik tahlil, Normativ-huquqiy asoslar tahlili, Solishtirma tahlil bosqichlarda olib borildi. Tadqiqotning yondashuvlari sifatida holat tadqiqi (case study) va kompleks tahliliy yondashuv tanlandi. Bu esa muammoni nafaqat makroiqtisodiy ko'rsatkichlar orqali, balki regional va sektorlar kesimida ham chuqur yoritishga imkon berdi.

Tadqiqot natijalari investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan strategik qarorlar qabul qilishda, shuningdek, hududiy investitsion rejalashtirishda qo'llanilishi mumkin.

4 Менежмент ва бизнес асослари (дарслик). С.С.Фулумовнинг умумий таҳрири остида. – Т.: Меҳнат.1997-245 б.

5 Собиров А. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиётига инвестициялар жалб этишни давлат томонидан тартибга солиш механизмларини такомиллаштириш. И.ф.н.илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.: ТДИУ. 2009. 12 б.


6 Goncharuk A.G., Karavan S. "The investment attractiveness evaluation: methods and measurement features", Polish journal of management studies, vol.7, 2013.

7 Otaboev Akhmed Makhsubek o'g'li, Juliana Juliana, Fazliddin Nasriddinov, "Factors affecting investment attractiveness in the global investment landscape", Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot 2024-yil, mart. № 3-son. 704-708 b.



TAHLIL VA NATIJALAR

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) xalqaro kapital harakatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yuqori qo'shilgan qiymatga ega raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, korxonalarni zamonaviy texnologiyalar bilan yangilash hamda yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim omil hisoblanadi.




1-rasm. O'zbekistonga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, sof tushumi (BP, joriy milliard AQSH dollari).⁸

So'nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiy o'sish sur'atlarini barqarorlashtirish va hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yo'lida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga strategik vosita sifatida qaralmoqda. Ularni jalb qilish va samarali foydalanish esa rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Investitsiya faoliyatini, jumladan xorijiy investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash, iqtisodiyotning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish hamda islohotlarni jadal davom ettirish maqsadida "O'zbekiston – 2030" strategiyasida bir qator chora-tadbirlar belgilangan.⁹

Xususan, 2030-yilga qadar mamlakat iqtisodiyotiga 250 milliard dollarlik investitsiyalarni o'zlashtirish rejalashtirilgan. Shundan 110 milliard dollar xorijiy investitsiyalar va 30 milliard dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi loyihalarga to'g'ri keladi. Shuningdek, asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmini har yili o'rtacha 7 foizga oshirib borish, hududlarning investitsion reytingini yuritish va har bir hududning salohiyatidan kelib chiqib, ularning investorlar uchun jozibadorligini oshirish kabi muhim vazifalar belgilangan.



2-rasm. O'zbekistondan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, sof chiqib ketishi (BoP, joriy AQSH dollari).¹⁰

⁸ <https://data.worldbank.org/indicator/BX.KLT.DINV.CD.WD?end=2023&locations=UZ&start=2019>

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli farmoni, <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>.

¹⁰ <https://data.worldbank.org/indicator/BM.KLT.DINV.CD.WD?end=2023&locations=UZ&start=2019>



Bozor iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash sharoitida investitsiyalarni jalb etish hamda ulardan samarali foydalanish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Investitsiyalar iqtisodiyotda qayta va takror ishlab chiqarish sur'atlari hamda hajmiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtiradi va aholining katta qismini ish bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Bunga sabab sifatida iqtisodiyotimizda yuz berayotgan tub tarkibiy o'zgarishlar, mehnat resurslarining ratsional va optimal tarzda joylashtirilishi hamda rivojlanishi ko'p jihatdan investitsion faoliyatga bog'liq ekani ta'kidlanadi.

Xorijiy investorlarning sarmoyalarini jalb etishda ularning manfaatlarini himoya qilish va davlat tomonidan zaruriy kafolatlar bilan ta'minlanishi muhim ahamiyatga ega. Investitsiya muhitining barqarorligi, qonuniylik va sarmoya xavfsizligining ta'minlanishi xorijiy kapital oqimini oshirishda hal qiluvchi omillardan biri sanaladi.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholining yashash sharoitlarini yaxshilash va turmush darajasini oshirishda hududlarga investitsiyalarni keng miqyosda jalb etish muhim o'rin egallaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, investitsion jozibadorlik hozirgi davrda nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtiruvchi, balki makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi strategik drayver sifatida alohida o'rin egallaydi. U oddiy rentabellik yoki kapital qo'yilma daromadlari darajasidan ko'ra kengroq tushunchani anglatadi. Jumladan, institutsional barqarorlik, infratuzilma sifati, iqtisodiy xavfsizlik, hududiy rivojlanish darajasi, huquqiy muhitning ishonchiligi va sarmoyador huquqlarining kafolatlanganligi kabi kompleks omillar bu kategoriyani tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston Respublikasi tomonidan so'nggi yillarda olib borilayotgan investitsion siyosat aniq strategik yo'nalishga ega bo'lib, u "O'zbekiston – 2030" milliy taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Mazkur strategiya asosida xorijiy investitsiyalar oqimini oshirish, iqtisodiy tarmoqlarning raqobatbardoshligini kuchaytirish, hududlararo tafovutni kamaytirish hamda yangi ish o'rinlari yaratish orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishish maqsad qilingan. Ayniqsa, infratuzilmaviy loyihalarining kengaytirilishi va investitsiyaviy xavfsizlik kafolatlarining kuchaytirilishi ushbu siyosatning samaradorligini oshiruvchi omillar sifatida e'tirof etiladi.

I.A. Blank modeli asosida olib borilgan tahlil natijalari investitsion jozibadorlikni baholashda ko'p mezonli va tizimli yondashuv zarurligini tasdiqladi. Ushbu model doirasida iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishining istiqbollari, korxonalar rentabellik darajasi, hududiy investitsion xavflar va demografik salohiyat kabi omillar hisobga olingan holda chuqur baholash imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa mamlakatning har bir hududi yoki tarmog'ining alohida jozibadorlik darajasini aniqlash, investitsion resurslarni samarali taqsimlash va ustuvor yo'nalishlarni aniqlashda amaliy vosita sifatida xizmat qiladi.

Xorijiy investorlarga berilayotgan huquqiy kafolatlar, shartnomalar ijrosini ta'minlovchi institutsional mexanizmlar, xalqaro standartlarga mos arbitraj tizimi va investorlar uchun ochiq axborot maydonining shakllanishi O'zbekistonning global investitsiyaviy xaritada raqobatbardoshligini oshirmoqda. Shu boisdan, investitsion jozibadorlik faqat tashqi kapitalni jalb etish vositasi sifatidagina emas, balki milliy iqtisodiyotda strukturaviy islohotlar, innovatsion yangilanish va barqaror rivojlanishni ta'minlovchi muhim vosita sifatida qaralishi lozim.

Investitsion jozibadorlikni oshirishga doir kompleks yondashuvlar va ilmiy asoslangan baholash usullari O'zbekistonning uzoq muddatli iqtisodiy strategiyasini shakllantirishda va global sarmoya bozorlari bilan integratsiyalashuv jarayonida muhim rol o'ynaydi.

Takliflar:

Investitsion baholash indikatorlarini milliy miqyosda standartlashtirish: I.A. Blank kabi xalqaro tan olingan modellardan foydalanish bilan birga, O'zbekiston sharoitlariga mos bo'lgan indikatorlar majmuasini ishlab chiqish tavsiya etiladi. Bu esa hududiy investitsion reytinglarni shakllantirishda aniqlik va izchillikni ta'minlaydi.

Hududlararo investitsion tafovutni kamaytirish: Rivojlangan markaziy hududlar bilan bir qatorda, iqtisodiy imkoniyatlari nisbatan past bo'lgan hududlarda maxsus soliq imtiyozlari, erkin iqtisodiy zonalar va infratuzilma loyihalarini kengaytirish lozim.

Investitsiya xavfsizligini kuchaytirish: Sarmoyadorlar huquqlarini ishonchli himoya qilish, shartnomalarning ijrosini kafolatlaydigan huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish va xalqaro arbitraj mexanizmlariga integratsiyani jadallashtirish kerak.

"Yashil" va barqaror investitsiyalarga ustuvorlik berish: Raqobatbardosh ustunlikka ega bo'lish uchun ekologik xavfsiz, energiya tejamkor va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydigan investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash zarur.

Ma'lumotlar ochiqligini oshirish: Potensial investorlar uchun investitsion imkoniyatlar, huquqiy asoslar va amaldagi rejalar haqida interaktiv axborot platformalari tashkil etilishi, shaffoflikni oshirish orqali investitsion qarorlar sifatini yaxshilaydi.



Kadrlar salohiyatini oshirish: Investitsiyalar bilan ishlaydigan davlat va hududiy mutasaddilar, jumladan, mahalliy hokimiyat vakillari uchun zamonaviy investitsiya boshqaruvi va muzokaralar olib borish bo'yicha doimiy malaka oshirish dasturlari joriy etilishi muhimdir.

Ushbu takliflar O'zbekiston investitsion jozibadorligini oshirish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va xalqaro investorlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli farmoni, <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning to'rtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutqi, 10.06.2025. <https://president.uz/oz/lists/view/8203>
3. Бланк И. А. Управление инвестициями предприятий. — К.: Ника-Центр, Эльга. 2003. — С. — 102
4. Otaboev Akhmed Makhsubek o'g'li, Juliana Juliana, Fazliddin Nasriddinov, "Factors affecting investment attractiveness in the global investment landscape", Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot 2024-yil, mart. № 3-son. 704-708 b.
5. Bohdan Kyshakevych Prof. DSc, Polonia University, e-mail: b_kyshakevych@ukr.net, orcid.org/0000-0001-5721-8543, Poland Marina Nahayeva Post-graduate student, Ivan Franko Drohobych State Pedagogical University, e-mail: nachajevamaryna@ukr.net, orcid.org/0000-0002-0587-6410, Ukraine Andrzej Kryński Professor, Ph.D., Polonia University in Czestochowa, e-mail: a.krynski@ap.edu.pl, orcid.org/0000-0001-9635-023X, Poland, "The economic essence of the investment attractiveness of the regions", Periodyk naukowy akademi polonijnej, 37(2019) nr6.
6. Менеджмент ва бизнес асослари (дарслик). С.С.Фуломовнинг умумий таҳрири остида. — Т.: Меҳнат. 1997-245 б.
7. Собиров А. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиётига инвестициялар жалб этишни давлат томонидан тартибга солиш механизмларини такомиллаштириш. И.ф.н.илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. — Т.: ТДИУ. 2009. 12 б.
8. Goncharuk A.G., Karavan S. "The investment attractiveness evaluation: methods and measurement features", Polish journal of management studies, vol.7, 2013.
9. <https://data.worldbank.org/indicator/BX.KLT.DINV.CD.WD?end=2023&locations=UZ&start=2019>
10. <https://data.worldbank.org/indicator/BM.KLT.DINV.CD.WD?end=2023&locations=UZ&start=2019>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
